ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UDK:1(091) **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2215

BOBURIYLAR SALTANATIDA TA'LIM TIZIMI

A.Azizkulov[1]., N.To'g'izov[2].
[1]Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
[2]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Mazkur maqolada Bobur va boburiy hukmdorlarning Hindistonda markazlashgan imperiyaga asos solishlari va uni ma'naviy-madaniy jihatdan yuksaltishga qaratgan faoliyatlarining falsafiy metodologik tahlili bayon etiladi. Shuningdek maqolada boburiy hukmdor Akbarshohning ta'lim tizimidagi islohotining mazmuni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Bobur, boburiy hukmdorlar, Akbarshoh, maorif, ta'lim, islohot, ma'naviy yuksalish, madaniy taraqqiyot.

Система образования в государстве Бабуридов

Аннотация. В данной статье представлен философско-методологический анализ деятельности Бабура и бабуридов, основавших централизованную империю в Индии и направленных на ее духовное и культурное совершенствование. В статье также освещаются реформы Акбар-шаха в системе образования.

Ключевые слова: Бабур, Акбар-шах, образование, реформа, духовный рост, культурное развитие.

Education system in the kingdom of Baburids

Abstract. This article presents a philosophical and methodological analysis of the activities of Babur and the Baburids, who founded a centralized empire in India and aimed at its spiritual and cultural improvement. The article also highlights Akbar Shah's reforms in the education system.

Key words: Babur, Akbar Shah, education, reform, spiritual growth, cultural development.

Temuriylar hukmronligi Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar bu davrni Markaziy Osiyoda ikkinchi uyg'onish davri ham deb e'tirof qiladilar. Temur va temuriylar kabi ilm-fan, madaniyat va adabiyotni qadrlaydigai, san'atni nozikta'b tushungan, o'zlari ham bu sohalarda ajoyib yutuklarga erishgan siyosiy sulola insoniyat tarixidan deyarli bo'lmagan. Bu sulola vakillari orasida she'r yozmagan, adabiy mashklar kilmagan, fan-madaniyatga homiylik kilmagan biror teuriyzoda bo'lmagan, chunki ijodkorlik va bunyodkorlik sohibqiron Amir Temurning asosiy fazilati edi.

Movarounnahrning poytaxti sifatida Samarqandda tabiiy-ilmiy bilimlar sohasida, xususan, Ulug'bek rahbarligida uning akademiyasida olamshumul kashfiyotlar amalga oshirilgan bo'lsa, Xuroson poytaxti Hirotda Temuriylar hukmronligi davrida ijtimoiy gumanitar fanlar, xususan, tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida katta muvafaqqiyatlar qo'lga kiritiladi. Bundan tashqari Temuriylar tomonidan yana bir madaniy markaz barpo etiladi. Bu Bobur Mirzoning Hindistonda yangi davlatga asos solishi va uning vorislari tomonidan tarqoq xalqlarni birlashtirib qudratli imperiya tashkil etilishidir. Boburiylar hukmronligi davrida bu imperiyada ilm – ma'rifat, adabiyot va sa'nat, me'morchilik sohasida ko'plab yutuqlar qo'lga kiritiladi. Bobur Mirzo va uning vorislari tomonidan Hindistonda markazlashgan davlat barpo etishilishi va bu imperiyaning har tomonlama gullab yashnaganini tadqiqotchi olimlar va davlat arboblari e'tirof etadi [1.408].

Hindistonda ilm-fan va madaniyatni, xususan, milliy ta'lim tizimi taraqqiyotida boburiy xukmdorlarning xizmatlarini yoritishda asosan hind tarixchilariining asarlaridan keng foydalanildi. Xususan, L.P. Sharmaning "Boburiylar saltanati" asaridan hamda mavzuni yoritishda Boburning "Boburnoma" hamda Gulbadanbegimning "Xumoyunnoma" asari kabi manbalardan foydalanildi.

Boburiy hukmdorlarning Hindistonda ta'lim tizimidagi amalga oshrigan islohatlarining mazmunini yoritishda obyektivlik, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, qiyosiy tahlil va shu kabi usullardan foydalanildi.

Boburiylar sulolasi hukmronligi Markaziy va Janubiy Osiyo sivilizasiyasida alohida o'rin tutadi. Afg'oniston, Hindiston va Pokiston tarixining muhim qismi sifatida e'tirof etiladigan bu sulola tarixi tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan sohaga aylangan. Hatto Buyuk Britaniya tarixi fanida bobur shunoslik alohida tadqiqot obyektiga sifatida shakllangan[1.3]. Bu Bobur Mirzoning Hindistonda yangi davlatga asos solishi va uning vorislari tomonidan tarqoq xalqlarni birlashtirib qudratli imperiya tashkil etilishi, o'lkada ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi hind tarixchilari tomonidan puxta o'rganilgan[2.408]. Boburiylar saltanati tarixiga oid ko'plab asarlar yaratilgan bo'lib, ular orasida hind tarixchisi L.P.Sharmaning "Boburiylar saltanati " asari alohida ahamiyat kasb etadi.

Asar boburiylar sulolasi vakillarining tarixini yoritishga qaratilgan bo'lib, unda Bobur Mirzo, Xumoyun, Akbarshoh, Jahongir, Shoh Jahon va Avrangzeblarniing hukmdorlik davridagi barcha ijtimoiy siyosiy jarayonlarni hamda madaniy taraqqiyotning xususiyatlarini bayon etishga harakat qilgan. Muallif boburiy hukmdorlar faoliyatini obyektivlik tamoyili asosida xolisona yoritishga harakat qilgan, biroq ayrim jihat va jarayonlarni sharhlashda subyektiv yondashuvlar ham mavjud va albatta bu tabiiy jarayondir. Shuningdek, L.P.Sharma voqyea va hodisalarni hamda hukmdorlar faoliyatini izohlashga o'zining fikrlari bilan birga tez-tez ingliz tarixchilarini xulosalarini ham keltirib o'tadi.

Asar boburiylar sulolasi vakillarining tarixini yoritishga qaratilgan bo'lib, unda Bobur Mirzo, Xumoyun, Akbarshoh, Jahongir, Shoh Jahon va Avrangzeblarniing hukmdorlik davridagi barcha ijtimoiy siyosiy jarayonlarni hamda madaniy taraqqiyotning xususiyatlarini bayon etishga harakat qilgan. Shuningdek, L.P.Sharma voqyea va hodisalarni hamda hukmdorlar faoliyatini izohlashga o'zining fikrlari bilan birga tez-tez ingliz tarixchilarini xulosalarini ham keltirib o'tadi.

L.P.Sharma o'z asarida dastlab Boburning fazilatlarini bayon etar ekan, uning barcha xislatlarini ochib berishga harakat qiladi. Ingliz tarixchisi S. Leyn Poul Boburni "Sharq tarixidagi eng maftunkor shaxs edi" degan mulohazasini keltirib o'tgandan so'ng, Boburning jismoniy fazilatlarini quyidagicha bayon etadi: "Boburning inson sifatidagi xislatlari haqiqatdan ham maqtovga sazavordir. U jismonan juda baquvvat kishi bo'lib, qal'a devori ustida ikki kishini qo'ltiqlab olib, to'siqlardan bemalol o'ta olar edi. Hindistonda duch kelgan har qanday daryodan qiynalmay suzib o'tar, 80 milgacha masofani dam olmay bir kunda bosib o'tar edi"[3, 25]. Muallif Boburning jismonan baquvvatligi uning mohir sarkarda bo'lib yetishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilgan, degan fikrni bayon etar ekan shunday deydi: "Bobur jasur navkar va tajribali sarkarda edi. U bolaligidanoq janglarda qatnashganidan o'limga qo'rqmasdan qarardi. Boburning sarkardalik tajribasi Markaziy Osiyoning turli toifa va guruhdagi xalqlari bilan bo'lgan janglarda chiniqib toblandi. U Temur yoki Chingizxon singari tug'ma sarkarda emas edi, balki hayotining dastlabki davridagi janglarda bir necha bor mag'lubiyatga uchrab, asta-sekin tadbirkor lashkarboshiga aylandi. U hyech qachon matonatini yo'qotmadi va kurashda yiqilgan paytlarida o'zini o'nglash uchun doimo iroda kuchini ishga sola bildi, janglarda tajriba to'pladi....Mana shunday tadbirkor lashkarboshiligi uchun ham u Hindistondagi janglarning barchasida g'olib chiqdi"[3, 25]. Muallif shu yerda tarixchi S.R.Sharmani quyidagi fikrlarini keltirib o'tadi: "U ajoyib chavandoz, mohir mergan, chaqqon qilichboz va tolmas ovchi edi".

Boburning jismoniy salohiyati va sarkardalik qobiliyatini yoritgandan so'ng uning shaxsiy axloqiy fazilatlarini ham izohlab o'tar ekan shunday deydi: "Bobur sadoqatli o'g'il, mehribon ota, sodiq do'st, vafodor er va g'amxo'r qarindosh edi. .... Bobur qarindosh-urug'laridan mehr-muruvvatini ayamas, do'stlarining tashvishlariga hamdardlik qilar va quvonchlariga sherik bo'lar, xotinlari bir nechta bo'lishiga qaramay, ularning barchasini baravar izzat qilardi, o'g'illarining ham hammasiga birdek mehr bilan qarardi. .... U saxiy, olijanob, mard, maftunkor, sevimli va juda madaniyatli kishi

edi" [3, 22]. Boburning mazkur fazilatlariini uning qizi Gulbadanbegim ham o‘zining "Xumoyunnoma" asarida keltirib o‘tadi [5, 51].

Hozirgi tarixchilarning barchasi, - deydi L.P.Sharma, Boburning tarixda juda katta hurmatga sazavor o‘rinni egallashini alohida ta'kidlaydilar deb, ularning ayrimlarining fikrlarini keltirib o‘tadi. Masalan, ingliz tarixchisi V.A.Smitning yozishicha, "Bobur o‘sha davrdagi osiyolik shahzodalarning eng zo‘ri bo‘lib, uning tarixdagi o‘rni o‘tmishdagi shahzodalar orasida ulkan tahsinga sazavordir". Ovrupalik tarixnavis Gavel esa Boburni "Islom dunyosi tarixidagi eng jozibador shaxslardan edi" deb ta'riflaydi. Ingliz sharqshunosi U. Erskinning ta'riflashicha , «Osiyolik shahzodalar orasida Bobur bilan barobar mavqyeni egallay oladigan shahzoda bo‘lgan emas". Boburning shaxsi va uning fe'l atvori shubhasiz, ana shunday yuksak baholarga sazavordir" [3, 29]. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Boburga nisbatan aytilgan bu fikrlarga munosabat bildirar ekan, L.P.Sharma shunday deydi: "... u Hindistonga temuriylarga xos davlat boshqaruvini olib kirdi va unga mustahkam asos soldi.... Bobur yangi imperiyani qay tarzda o‘rnatish kerakligini ko‘rsatibgina qolmay, balki bu imperiyani boshqarish siyyosatini ham o‘rgatib qo‘ygan edi. U Hindistonda o‘rnatgan sulola va uning an'nalarini hyech qaysi maalakatda topib bo‘lmaydi" [3,29]. Hind tarixchisi L.P.Sharma Boburning Hindistonda milliy davlatchilik tizimini yaratishdagi xizmatlarini baholar ekan, bir vaqtlar afg‘onlarga tobe bo‘lgan Hindiston, boburiylar sulolasi davrida Afg‘onistonni Dehli sultonligiga qaram bo‘lganligini faxr bilan ifoda etadi.

Hind tarixchilari boburiylarning Hindistonda ilm-fan va madaniyatni, shuningdek san'atning barcha turlarini rivojlantirishdagi hissalarini alohida ta'kidlaydilar.

Avvalo Hindistonda ilm-fan rivojidagi boburiylar xizmatini Sharma quyidagicha bayon etadi: "Boburiylar hukmronligi davrida rejali va bir xil tizimdagi ta'lim o‘choqlari tuzilgan bo‘lib, yoshlarni o‘qitish ishlari, asosan, yakka tartibda yoki madrasalarda olib borilardi. Mudarrislar va madrasalarga shahar sadrining tavsiyasiga ko‘ra davlat tomonidan moddiy yordam va mukofotlar berilardi. Musulmon bolalari maktab va madrasalarda, hind bolalari esa "patshala" (9maktab) va "vidyapist" (kollej)larda o‘qir edi. Shohlar(Boburiylar –A,A) o‘zlari yaxshi savodli bo‘lganliklari uchun maorif va madaniyatni rivojlantirishga katta e'tibor berar edilar. Ularning hammasi olumu ulamolar fozulu kiromlarni avaylab, ularga ko‘p g‘amxo‘rlik ko‘rsatardilar. Shuning uchun ham saltanatda olimlarga muhtojlik sezilmagan. Va ilmiy asarlar ham o‘sha davrda ko‘plab yaratilgan. Qolaversa, ilmiy, badiiy asarlar bir necha tillarda yaratilardi"[3.151]. Markaziy Osiyoda ikkinchi Renessansiga asos solgan, Samarqand va Hirotda ilmiy tadqiqot markazlari – akademiyalar tashkil etib ularni boshqargan temuriylardan bo‘lmish boburiy podshohlar Hindiston zaminida o‘z faoliyatlarini ilm-fan va madaniy taraqqiyotga homiylik qilishdan boshladilar. Buni hind tarixchisii quyidagicha bayon etadi: "Boburiy shohlarning birinchisi bo‘lmish Boburning o‘zi yirik olim edi. U Dehlida madrasa qurdirib, bu ilm dargohida geografiya, matematika, va astronomiya hamda diniy fanlar o‘qitilishi ta'minlandi. Uning o‘g‘li Xumoyun ham Dehlida madrasa tikladi. Bu paytlarda diniy ilmlar, islom nazariyasi o‘qitilishiga ko‘proq e'tibor berilardi" [3.151]. Hindistonni zabt etib nihoyatda qisqa muddatda, atiga 4 yil hukmronlik qilgan Bobur Dehlida madrasa qurdirib ham tabiiy ilmiy ham diniy bilimlar olishga imkon beradigan ta'lim maskanlarini barpo etadi. Boburning vorisi Xumoyun hukmronligi davrida Hindistonda kechgan beqaror va tahlikali, qaltis vaziyatlarda ham ilm-fan rivojiga e'tibor susaymadi.

Boburning Hindistonda markazlashgan qudratli davlat tuzish orzusini nabirasi Akbarshoh amalga oshiradi. Hukmdor Akbarshohni hind tarixchilari buyuk imperiya barpo etgan qahramon sifatida e'tirof etadilar. Uning ta'lim tizimini isloh qilishga oid tadbirlarini tarixchilar quyidagicha bayon etadilar: "Akbarshoh davriga kelib faqat diniy fanlargina emas, balki dunyoviy fanlar ham o‘qitilishiga zarurligi sezilib qoldi. Shuning uchun ham u musulmon va hind maktab-madrasalarida barcha dunyoviy fanlarni, jumladan, matematika, geografiya, tarix,siyosatshunoslik va astronomiya kabi fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘ydi. Maorif tizimini takomillashtirishga ham ko‘p e'tibor berildi"[3.151].

Akbarshoh nafaqat qudratli imperiya yaratadi, balki mamlakatda ta'lim sohasida eng muhum islohotlarni amalga oshiradi. "Akbarshoh shunday talab qo'yar edi: "Talaba hamma narsani o'zi tushinib olishni o'rganishi, muallim esa uni bir ozgina yordam berib turishiga erishish lozim"" [3.151]. XXI maorif tizimida innovasion ta'lim texnologiyasi deb ataladigan bu g'oyani to'rt yarim asr avval Hindistonda boburiy Akbarshoh qo'llagan edi.

"Akbarshohning bu niyatlariga qay tarzda erisha olganiga u hukmron bo'lgan davrda ko'plab maktab va madrasalar ochilgani, jamiyatga ko'plab olimu ulamolar, fozilu fuzalolar yetishtirib bergani, xalqning turmush faravonligiga va madaniyati boshqa davrlarga qaraganda ancha yuqori darajaga ko'tarilganidan ham ishonch qilsa bo'ladi"[3.152]. Hind tarixchilarining mazkur xulosasi Akbarshoh tomonidan amalga oshirilgan ta'lim islohotlarining muvaffaqiyatni anglatadi. Ayniqsa, Akbar hukmronligi davrida madaniyatlararo integrasiya jarayoni uchun yaxshi muhit yaratiladi. Musulmon Sharq madaniyati bilan qadimgi hind madaniyatining o'zaro bir biriga ta'siri, uyg'unligiga zamin yaratiladi. "Bu davrda hindlarga ham fors tilini o'rgatish yo'lga qo'yildi, musulmonlar esa qadimgi hind tilini (sanskrit)ni o'rgandilar. Natijada ko'plab sanskritda yozilgan tarixiy asarlar fors tiliga tarjima qilindi"[3.152]. Ta'lim tizimidagi islohotlar Akbarshohning vorislari tomonidan davom ettiriladi. Barcha boburiy hukmdorlar mamlakatda ilm-fan taraqqiyoti va ta'lim tizimining ravnaqiga alohida e'tibor qaratganligini L.P.Sharma quyidagicha izohlaydilar: "Jahongir davrida ham hind va musulmon maktab, ta'lim-tarbiya o'choqlari gurkirab rivojlandi. Avrangzebdavrida esa ko'proq musulmon maktabi va madrasalariga e'tibor kuchaytirildi. Dehli, Agra, Fotehpur, Sekri, Laknov, Guvalyor, Kashmir, Allohobod, Lohur, Jonpur, Sialkot va boshqa shaharlar musulmonlarning asosiy ilm markazlariga aylantirilgandi. Maktab va madrasalarda o'qitish ishlari fors tilida olib borilar edi. Ular orasida ayrim fanlarni o'qitish borasida juda katta tajribaga ega bo'lib, mashhur bo'lib ketganlari ham oz emasdi. Masalan, Laknovdagi Farajgi Mahal madrasasi qonunshunoslik ilmini o'qitishda mashhur edi. Dehlidagi Shoh Valiulloh madrasasi mantiq ilmini, Sialkotdagi madrasa esa sarfu nahv(grammatika) ilmini o'qitish bo'yicha tengi yo'q sanalardi" [3.152]. Bu boburiylar davrida oliy ta'lim tizimi – madrasalarda ixtisoslashishi jarayonini anglatadi. Mamlakatda mantiq, tilshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarga hamda musulmon va hind ilohiyotshunosligiga ixtisoslashgan ta'lim va ilm markazlari vujudga keladi. Madrasalarning nufuzini bayon etar ekan hind tarixchilari shunday deydi: "Madrasaning shuhrati unda dars beradigan mudarris va muallimlarning obro'si bilan o'lchanar edi. U paytlarda imtihon olish odat tusiga kirmagan bo'lib, o'qishga qabul qilish va o'qitish talabaning ustoziga bog'liq bo'lgan.Talabaning bilimi qaysi maktab yoki madrasada o'qigani va qaysi muallim o'qitgani bilan belgilangan. Madrasani bitiruvchilariga o'qigan fani sohasiga qarab uch xil daraja berilardi. Mantiq va falsafa ilmini o'rganganlarga "fozil" unvoni, diniy ilm o'rganganlarga "olim" unvoni va adabiyot fanini o'rganganlarga "qobil" unvoni berilar edi"[3.152].

Boburiy hukmdorlarning ilm-fan va maorif sohasidagi islohotlari chin ma'noda Hindiston zaminida ma'naviy yuksalishga zamin bo'ladi. Ular nafaqat musulmon fuqarolariga, balki hind bolalariga ham ta'lim tizimida qulay shart-sharoit yaratilishini qattiq nazorat qildilar. "Hind maktablarida sanskrit tili va adabiyotiin o'rganishga alohida e'tibor qaratilardi. Bundan tashqari teologiya, geografiya, tibbiyot va grammatika fanlari o'qitilardi. Banoras, Matura, Allohobod, Nodiya (Bengaliya), Mitila (Behor), Ayodhyya, Srinagar kabi shaharlar hindlarni o'qitish bo'yicha asosiy markazlar hisoblanardi. Banoras maktablari din nazariyasi, sanskrit adabiyotini o'qitishda katta obro'ga ega bo'lib, uni sayyohlar Gresiyaning Afinadagi oliy maktablariga tenglashtirardi. Maktablar hatto qishloqlarda ham ochilib, bolalar unga besh yoshidan qabul qilingan va besh yil davomida bepul o'qitilgan. Hind maktablarida o'g'il bolalar va qiz maktablarda alohida emas, balki birga o'qitilardi. Hindlar qizlarining savodli bo'lishiga ko'proq e'tibor berishar edi. Biroq oliy ma'lumotni qizlar faqt o'yda(imkoniyati bor oilalarda) olar edilar" [3.153]. Hattoki qizlarning ham ta'lim olishiga alohida e'tibor ma'rifatli boburiy hukmdorlarning diqqat markazida bo'lgan. Bu jarayonlarning barchasi boburiy hukmdorlarning mamlakatda ta'lim tizimidagi islohotlarining samarasi edi.

Boburiylar saltanatida ta'lim tizimidagi taraqqiyot avvalo musulmon va hind bolalariga nisbatan bir xilda shart-sharoitlarning yaratilganligi bilan bog'liq bo'lib bu boburiy hukmdorlarning ma'rifatparvarligi va bag'rikenglik madaniyatining yuksakligidan dalolat beradi. Tarixchilar ayniqsa Bobur Mirzoning bag'rikenglik madaniyatini alohida e'tirof etar ekanlar shunday deydi:"Boburning bironta hind ibodatxonasini buzgani yoki hindlarning ularning diniy e'tiqodiga ko'ra ta'qib qilganining biror bir asorati ko'rinmaydi"[3, 23]. L.P.Sharma bu fikrlarini sharhlar ekan, shunday deydi: "Boburning musulmon va hindlarga baravar munosabatda bo'lgani to'g'risida bir necha misol bor. 1529 yilda Gogra daryosi qirg'og'idagi jangdan oldin u hind va musulmon beklari bilan teng maslahatlashgan edi. Shuning uchun ham ko'pchilik tarixchilarning fikriga ko'ra Bobur dindor shaxs bo'lgan bo'lsa ham, lekin u ko'r-ko'rona xurofotchi bo'lgan emas va Hindistondagi faoliyati davomida diniy jaholatparastlikka yo'l qo'ymadi" [3, 23]. L.P.Sharma Boburning bag'rikenglik madaniyatini izohlashda yana bar hind tarixchisi R.P.Tripatining fikrini keltirib o'tadi: "...boburiylar imperiyasining tantanasi uning harbiy qudrati tufayligina emas, balki o'z siyosatida diniy e'tiqod erkinligini amalga oshirgani va madaniy hayotga katta hissa qo'shganligi tufaylidir". Bu siyosatni esa Bobur boshlab bergan edi? - deydi? L.P. Sharma tarixchilarning mulohazalarni sharhlar ekan, Bobur ma'rifatchi shoh bo'lgan edi,-deydi [3, 23]. Boburiy xukmdorlarning yuksak bag'rikenglik madaniyatiga ega ekanligi uch asrdan ortiqroq vaqtda Hindiston zamining ravnaqiga, ilm-fan va madaniyatning yuksalishiga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak avvalo, hind tarixchilarining o'zlari ta'kidlaganidek boburiylardek sulola Hindistonda markazlashgan, qudratli imperiyani yaratdilar.

Ikkinchidan, mazkur sulola asoschisi ma'rafatli shoh Bobur zurriyotlari ham ma'rifatli bo'lib, Hindistonda madaniy taraqqiyotga katta hissa qo'shdilar. Natijada imperiyada ma'naviy va madaniy hayot gurkirab rivojlandi.

Uchinchidan Akbarshohning maorif tizimidagi islohoti hind madaniy taraqqiyotida nodir fenomen bo'lib qoldi. Shu bois hind tarixchilari boburiy hukmdorlarni milliy qahramon sifatida e'tirof etadilar. Vatandoshimiz Bobur va boburiylarni Hindiston tarixida bunday yuksak e'tirof etilishi, har birimizga yuksak iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

Adabiyotlar

1. Sotimov G'. Shoh va shoir saltanati//L.P.Sharma Boburiylar saltanati, T.: "Ma'naviyat"-1998. 3-5 betlar.
2. Джавахарлал Неру. Открытие Индии.М.1989. - 408 стр.
3. Sharma L.P.Boburiylar saltanati; ingl. Tilidan tarj. –T.: "Ma'naviyat", -1998y. -168 bet.
4. Bobur. Boburnoma.T.1989y. -368 b.
5. Gulbadanbegim, Zahiriddin Muhammad Bobur qizi Xumoyunnoma T. "O'zbekiston" NMIU,2016.-120 b.
6. Gulbadan Begim (Zahiriddin Boburning qizi) T.1959 y.-112b.
7. Nizomiddinov N.G. Buyuk boburiylar tarixi *(*XVI—XIX asr*).* Monografiya. —T.: "G'an va texnologiya", 2012, 516 bet.
8. Azizkulov A. "Khumoyunnoma" is a rare gem of the scientific heritage of the baburids// academicia globe: inderscience research volume 3, issue 4, april – 2022.372-377.
9. Azizkulov A. Boburiylar saltanatining ahamiyati hind tarixiy manbalarida // Innovative Academy Research Support Center Tashkent Volume 1 Issue 09, December 2021 ISSN 2181-2020 Eurasian journal of academic research 412-417 betlar.
10. Azizkulov A. Hind tarixchilari Bobur xususida// Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va merosini o'rganish dunyo talqinida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami 2021 yil 12 fevral II-Qism Toshkent – 2021 136-138 betlar.